



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғойбназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Ғолиб Султонмуродович Мустафоев Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш	80
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati	85
Askar Axrorovich Siddikov, Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari	87
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Muslimaxon Xolmatjon qizi Soxibova O‘zbekistonda ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarishning nazariy asoslari	90
Murodjon Rajabbayevich Matniyozov Methodological bases of formation of tourism image of the Khiva destination	96
Kamol Sharifovich Yuldashev Mustaqil turizm rivojlanishining evolyutsiyasi	100
Ўткир Дўснаевич Ражабов Ўзбекистонда диний туризм ривожланишининг салоҳияти ва истиқболлари	106
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Ra‘no Akbar qizi Qulmurodova Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik – aholi turmush darajasini oshirishning bir omili sifatida	110
Saodat Toxirovna Toshaliyeva Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish holati tahlili	114
Имомназар Эгамбердиевич Турсунов, Кермен Антоновна Наминова, Тулкин Саидахмедович Шарипов Развитие малого и среднего бизнеса в условиях цифровой экономики	118
Гулнора Мардиевна Шодиева, Дилноза Азаматовна Тоғаева Хизматлар кўрсатиш соҳасида оилавий корхоналарни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	123
Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadida uning sifat xususiyatlarini tasniflash	130
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish	134
Shahlo Akramovna Maripova Modern digital tools in small business management	138
Bekzodjon Oblakulov, Shakhnoza Narkulova Marketing Analysis of International Brand in the Case of Borjomi	143
Абдухолик Эгамович Тангиров Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида корхона бошқаруви ва уни ташкил этишининг моҳияти	147
Зулфия Мусаевна Усманова Перспективные направления совершенствования механизма управления персоналом	151
ИНВЕСТИЦИЯ	
Jahongir Ravshanbek o‘g‘li Hoshimov Yangi O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holatining kompleks tahlili	155

Layli Baxtiyrovna Navruz-zoda – Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD

INSON TADBIRKORLIK QOBILIYATINI BAHOLASH MAQSADIDA UNING SIFAT XUSUSIYATLARINI TASNIFLASH

Annotatsiya: maqolada ilg‘or xorijiy va milliy tajribalari asosida tadbirkorlik qobiliyatini baholashni, tadbirkor shaxsning sifat xususiyatlaridan kelib chiqadigan “Uch darajali - qattiq (hard skills); yumshoq (soft skills) va raqamli (digital skills) tadbirkorlik ko‘nikmalari” tasnifi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik qobiliyati, shaxsiy fazilat, kasbiy ko‘nikma, tadbirkorlik mahorati, marketing ko‘nikma, menejerlik fazilat, innovatsion faollik, qattiq ko‘nikma, yumshoq ko‘nikma, raqamli ko‘nikma.

Kirish. Insonning kasbiy muvaffaqiyati XIX asrda o‘qish va yozish mahorati bilan belgilanadigan bo‘lsa, XX asrga kelib kasb-korda omadga erishish ingliz tili bilimdonligi va kompyuterda ishbilarmonligiga bog‘liq bo‘ldi. “Bugun, XXI asrda tadbirkor kabi fikrlash va harakat qilish qobiliyati ayniqsa muhim, chunki yollanma ishchilar jamiyatidan tadbirkorlikka o‘tish muqarrar”, deydi Vena tadbirkorlik va innovatsiyalar instituti rahbari, professor Nikolas Frank[4]. Biznesni rivojlantirish ko‘pincha tadbirkorning bilim va ko‘nikmalarining yetarli darajada yetishmasligiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shuning uchun tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun “tadbirkor qo‘shimcha qiymat keltirishga qodir bo‘lgan tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak”, deb o‘ylaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadbirkorlik qobiliyatini baholash masalasi bir nechta xorijiy va mamlakatimiz olimlarining tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Piter Druker, Dj. Makyarello, Filip Kotler, B. P. Hall, T. A. Fotekova, S. V. Mitroxina, Ye. N. Vlasova, M. Bacigalupo, P. Kampylis, Y. Punie, G. Van den Brande, N. Q. Murodova, B.N. Navruz-Zodaning ilmiy tadqiqotlari tadbirkorlik qobiliyatini baholash usullariga big‘ishlangan ilmiy ishlarini sanab o‘tish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada monografik tahlil usuli, qiyosiy tahlil usuli, tizimli tahlil usulidan foydalangan holda tadbirkorlik qobiliyatini baholash mexanizmi sifatida tadbirkorning fazilatlarini tasniflashning “HSDS modeli” ishlab chiqilgan. Guruhlash usulidan foydalanib, tadbirkorlik ko‘nikmalarini qattiq, yumshoq va raqamli turlari ajratilgan. Mazkur usullarni qo‘llash evaziga maqolaning samaradorligi va amaliy tavsiyalarining natijadorligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadbirkorlik qobiliyatining mavjudligi va sifat darajasi tadbirkorning bir qator shaxsiy fazilatlarini, kasbiy ko‘nikmalari va tadbirkorlik mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun maqolada biz tadbirkorlik qobiliyati sifat xususiyatlarining tasnifi bo‘yicha mavjud turli yondashuvdarini ko‘rib chiqib, o‘z yondashuvimizni ilmiy jihatdan asoslash sa‘y-harakatini qildik.

Hozirgi davrda tadbirkorning tavakkalchilik, tashkilotchilik, boshqaruvchanlik va novatorlik kabi tub fazilatlarini o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Biroq ularning tarkibiga globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda yangicha fazilatlarini aniqlab, kiritish taqozo etiladi.

XX asrning eng nufuzli menejment nazariyotchisi Piter Drukerning Dj. Makyarello bilan hammualliflikda tayyorlagan original “Menejment” darsligida tadbirkorlik bo‘yicha quyidagi fikr bildirgan: “Biznesning maqsadi mijoz yaratish bo‘lganligi sababli, har qanday kompaniya faqat ikkita tayanch funktsiya – marketing va innovatsiyaga ega bo‘ladi”[5]. Uning bu fikridan kelib chiqib, zamonaviy tadbirkorning muhim fazilati sifatida “marketing mahorati”ni kiritish o‘rinli, deb hisoblaymiz. Dunyoga mashhur marketing nazariyotchisi Filip Kotlarning klassik ta‘rifiga

ko‘ra “marketing – bu ayirboshlash orqali zarurat va ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan inson faoliyat turidir”[7].

Tadbirkorlik ko‘nikmalarini aniqlash Xall-Tonna (Hall-Tonna Model) modeliga asoslangan bo‘lib, u to‘rtta quyidagi ko‘nikma turlarini ajratadi[8]:

1. Instrumental qobiliyatlar (Instrumental skills).
2. Shaxslaro ko‘nikmalar (Interpersonal skills).
3. Tasavvur qilish ko‘nikmalar (Imaginative skills).
4. Tizimli ko‘nikmalar (Systemic skills).

Xall-Tonna modeli bo‘yicha ajratilgan instrumental, shaxslaro, tasavvur qilish va tizimli tadbirkorlik ko‘nikmalari tadbirkorlikni jarayon sifatida ko‘rib chiqib, uning uchta: tadqiqot, amalga oshirish va boshqarish bosqichlariga[6] xos bo‘lgan kompetensiyalari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tadbirkorlik faoliyatini sifat menejmenti obyekti sifatida tadqiq etishda tadbirkorlarga xos bo‘lgan menejerlik ko‘nikmalari, marketing mahorati, yangilikka intiluvchanligi kabi sifat xususiyatlarini ham inobatga olish kerak, deb hisoblaymiz.

Tadbirkorlik qobiliyatini tasniflashning psixologik yondashuviga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatiga moyillik va psixologik tayyorlikni belgilovchi shaxsiy fazilatlar uchta quyidagi guruhga ajratiladi[9]:

1. “Asab tizimi va tafakkurning xususiyatlarini tavsiflovchi fazilatlar” guruhi.
2. “Motivatsion sohaning xususiyatlari” guruhi.
3. “Liderlik fenomeni” guruhi.

Qayd qilish kerakki, T. A.Fotekova, S. V.Mitroxina, Ye. N. Vlasova va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik qobiliyatini diagnostika qilishning yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlarini tadbirkorlik faoliyatiga professional moyillikni respondentlarning o‘z-o‘zini baholash shaklida emas, balki salohiyatli shaxs sifatida tekshirish imkonini beradi. Lekin ushbu tasniflashda shaxsiy va kasbiy fazilatlari bilan bir qatorda tadbirkorlik qobiliyatining funksional (menejment, marketing) va raqamlashtirish jihatlari ham inobatga olish zarur, deb hisoblaymiz.

Yevropa komissiyasi doirasida tadbirkorlik sohasida kompetentlikning tuzilishi masalasi bo‘yicha (EntreComp - Entrepreneurship Competence Framework) olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida Yevropa fuqarolari va tashkilotlarining tadbirkorlik salohiyatini oshirishga qaratilgan vosita sifatida 3 ta kompetentlik sohasi va ularning 15 ta tayanch kompetensiyalari tavsiya etadi. Bunda kompetensiya, EntreComp tadqiqoti doirasida “bilim, ko‘nikma va munosabatlar yig‘indisi” sifatida tushuniladi. Tadbirkorlik kompetensiyasining sohalari va kompetensiyalari quyidagilardan iborat[1]:

1-kompetentlik sohasi – “G‘oyalar va imkoniyatlar”. U o‘z navbatida quyidagi kompetensiyalarga ajratiladi:

1.1. Imkoniyatlarni aniqlash (qiymat yaratish imkoniyatlarini aniqlash uchun o‘z tasavvuringiz va qobiliyatingizdan foydalaning).

1.2. Ijodkorlik (ijodiy va maqsadli g‘oyalarni rivojlantirish).

1.3. Kelajak haqidagi tasavvur (kelajak haqidagi tasavvuringizga qarab sa’y-harakat qiling).

1.4. G‘oyalarni qadrlash (g‘oyalar va imkoniyatlardan maksimal darajada foydalaning).

1.5. Barqaror va etik fikrlash (g‘oyalar, imkoniyatlar va harakatlarning oqibatlarini va ta’sirini baholang).

2-kompetentlik sohasi – “Resurslar”. Ushbu kompetentlik sohasi quyidagi kompetensiyalardan tarkib topadi:

2.1. O‘zini anglash va o‘z samaradorligi (o‘zingizga ishonning va rivojlanishni davom ettiring).

2.2. Motivatsiya va qat’iyatlik (diqqatingizni jamlang va taslim bo‘lmang).

2.3. Resurslarni safarbar qilish (kerakli resurslarni to‘plang va ularni boshqaring).

2.4. Moliyaviy va iqtisodiy savodxonligi (moliyaviy va iqtisodiy nou-xauni rivojlantirish).

2.5. Boshqa resurslarni safarbar qilish (ilhomlantiring, ruhlantiring va boshqalarni jalb qiling).

3-kompetentlik sohasi – “Harakatlar”. Bu kompetentlik sohasi esa 4 ta quyidagi kompetensiyalar asosida shakllanadi:

3.1. Tashabbusni o‘z qo‘liga olish (olg‘a).

3.2. Rejalashtirish va menejment (ustuvorlikni belgilash, tashkil qilish va kuzatish).

3.3. Noaniqlik, turli ma‘nolik va muammoni yechish (noaniqlik, turli ma‘nolik va tavakkal bilan bog‘liq qarorlar qabul qiling).

3.4. Boshqalar bilan ishlash (jamoatuzing, hamkorlik va muloqot qiling).

3.5. Tajriba orqali o‘rganish (amalga oshirish orqali o‘rganing).

Ushbu tasniflash tadbirkorlik sohasida kadrlarni tayyorlashda ta‘lim standartlari, malakaviy talablarni shakllantirish, o‘quv dasturlarni yaratishda xizmat qiladi. Lekin ular tadbirkorlik qobiliyatini baholashda ishonchli vosita sifatida xizmat ko‘rsata olmaydi, deb o‘ylaymiz.

Prof. N.Q. Murodova o‘z tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarini sifat ifodalovchisi bo‘lmish tadbirkorlik faolligi darajasini oshirish masalalarini tadqiq etib, uni baholash uslubiyotini ishlab chiqqan. U kishi tomonidan tadbirkorlik faolligi tadbirkorlik qobiliyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatini ifodalaydigan beshta quyidagi mezonlar orqali baholash tizimi taklif etilgan:

1. Iqtisodiy salohiyat.

2. Bozor faolligi.

3. Moliyaviy barqarorlik.

4. Raqobatbardoshlik.

5. Ijtimoiy faollik[2].

N.Q.Murodova tomonidan taklif etilgan baholash mezonlari ko‘proq tadbirkorlik qobiliyatining samaradorligini baholashga xizmat qilib, uning sifat darajasi tor, faqatgina tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy naflilik holatlarini inobatga oladi. Biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini sifat jihatidan baholashda tadbirkor insonlarning shaxsiy, kasbiy va funksional fazilatlarini inobatga olinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Prof. B.N.Navruz-Zodaning fikriga ko‘ra, “har bir inson bu foniy dunyoga kelib hayotiy ehtiyojlarini to‘liq qondirib, to‘q yashashga haqli va bu uchun u tegishli ichki salohiyatga ega. Bunday qobiliyatlardan, agar biri, barcha iqtisodiy tizimlarda amal qilib kelayotgan mehnat qobiliyati bo‘lsa, ikkinchisi – bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan tadbirkorlik qobiliyatidir... Inson tadbirkorlik qobiliyatlari uning tashabbuskorlik, menejerlik, novatorchilik, tavakkalchilik, bozorshunoslik kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Insonning ushbu qobiliyati mehnat qobiliyatiga nisbatan murakkabroq, o‘zlashtirilishi qiyinroq salohiyat bo‘lib, uni shakllantirish uchun alohida tajriba va rivojlantirish uchun esa iroda va maxsus tayyorgarlik kerak bo‘ladi”[3]. Inson tadbirkorlik qobiliyatini bilimga va tajribaga asoslangan fazilatlarga ajratilgan holda tasniflash, fikrimizcha, mazkur qobiliyatini sifat jihatidan aniqroq baholash imkonini yaratadi.

Yuqorida tavsiflangan tadbirkorlik fazilatlarini tasniflashning ilg‘or xorijiy va milliy tajribalari asosida biz tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadini ko‘zlab, tadbirkor shaxsning sifat xususiyatlaridan kelib chiqadigan “Uch darajali - qattiq (hard skills); yumshoq (soft skills) va raqamli (digital skills) tadbirkorlik ko‘nikmalari” tasnifini taklif etamiz.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelib takliflar beriladi:

1. Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholashda uning sifat xususiyatlarini tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkor shaxsning sifat xususiyatlarini tasniflash bo‘yicha “Xall-Tonna modeli”, “psixologik”, “kompetentlikning tuzilishi” (EntreComp) va boshqa mavjud qarashlar ko‘rib chiqilib, ilg‘or xorij tajribalari asosida tadbirkorlik ko‘nikmalarini tasniflashning “Uch darajali - qattiq (hard skills); yumshoq (soft skills) va raqamli (digital skills) tadbirkorlik ko‘nikmalari” tasnifi tavsiya etildi.

2. Tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun tadbirkor shaxs qattiq, yumshoq va raqamli ko‘nikmalarini uyg‘unlikda namoyon etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qattiq tadbirkorlik ko‘nikmalar (hard skills for entrepreneurship) – professional malakaga bevosita bog‘liq bo‘lgan va o‘qish, trening, seminar natijasida orttiriladigan texnik ko‘nikmalar. Yumshoq tadbirkorlik ko‘nikmalar (soft skills for entrepreneurship) – shaxsiy, shaxslararo yoki moslashuvchan ko‘nikmalar. Raqamli tadbirkorlik ko‘nikmalar (digital skills for entrepreneurship) – bu axborot-kommunikatsion texnologiyalari (AKT) sohasidagi turli muammolarni hal qilish qobiliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vacigalupo, M., Kamylyis, P., Punie, Y., Van den Brande, G. (2016). *EntreComp: The Entrepreneur-ship Competence Framework*. Luxembourg: Publication Office of the European Union; EUR 27939 EN; 39 p doi:10.2791/593884. <https://ec.europa.eu/jrc/entrecomp>.
2. Муродова Н.Қ. Кичик бизнес субъектларининг тadbirkorlik фаоллигини ошириш йўналишлари. Монография. -Т.: ФАН, 2008.
3. Навруз-Зода Б.Н.Камбағалликни қисқартиришнинг моноиктисодий йўли. “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. 2021, 1-сон. Б:24.
4. Предпринимательство: волшебная формула Питера Друкера для 21 века. <https://pmba.vedomosti.ru/entrepreneurship-and-innovation/predprinimatelstvo-volshebnyaya-formula-pitera-drukera-dlya-21-veka> (дата обращения:12.03.2022).
5. Питер Друкер, Макьярелло Дж. Менеджмент. Перевод с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2010. –704 с. С.:165.
6. Rodrigo Alda-Varas, Lourdes Villardón-Gallego,Itziar Elexpuru-Albizuri.Proposal and Validation of an Entrepreneur Competency Profile: Implication for Education. *Electronic Journal of Research in Educational Psychology*, 10(3), pp: 1057-1080. ISSN: 1696-2095. 2012, no. 28 .
7. Филип Котлер.Основы маркетинга. –М.: «Вильямс», 2007. – 647 с. С: 21.
8. Hall, B. P. (1994). *Values Shift: A Guide to Personal & Organizational Transformation*. California: Twin Lights Publishing. 288 p.
9. Фотекова Т. А., Митрухина С. В., Власова Е. Н. И др. Исследование профессиональных склонностей к предпринимательской деятельности у молодежи Республики Хакасия. Журнал Психология. Серия: Познание №11 ноябрь 2020 г. 107-113 с.

<p style="text-align: center;">Л.Навруз-зода</p> <p style="text-align: center;">Классификация качественных характеристик предпринимательских способностей человека с целью его оценки</p> <p>Аннотация: в статье предлагается трехуровневая – “твердые навыки”, “мягкие навыки” и “цифровые навыки” – классификация оценки предпринимательских способностей на основе передового зарубежного и отечественного опыта. “Модель HSDS” классификации предпринимательских качеств была разработана как механизм оценки предпринимательских способностей.</p> <p>Ключевые слова: предпринимательские способности, личностные качества, профессиональные навыки, предпринимательские навыки, маркетинговые навыки, управленческие качества, инновационная активность, твёрдые навыки, мягкие навыки, цифровые навыки.</p>	<p style="text-align: center;">L.Navruz-zoda</p> <p style="text-align: center;">Classification of qualitative characteristics of a person’s entrepreneurial abilities for the purpose of assessing it</p> <p>Abstract: The article proposes a three-level – “hard skills”, “soft skills” and “digital skills” – classification for assessing entrepreneurial abilities based on advanced foreign and domestic experience. The HSDS model of entrepreneurial trait classification was developed as a mechanism for assessing entrepreneurial ability.</p> <p>Keywords: entrepreneurial ability, personal quality, professional skills, entrepreneurial skills, marketing skills, managerial quality, innovative activity, hard skills, soft skills, digital skills.</p>
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.